

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyeвна	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
Xodjayeв Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
Yusupov Farhod Adamboyevich	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich	
OLIIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
Meliboyev Askar Eshmuratovich	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
Садиков Жaxonгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
Мирджуроев Сарвар Алишер угли	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	250
O'rinboev Ulug'bek Otabekovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО	259
Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
Давронов Олимбек, Туляганов Азиз	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	271
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
Azimova Maxfuza Rashidovna	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI	284
Xolov Xamza Tojiddinovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH	292
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
Ochilova Intizor Sadikovna	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
Sindarov Fazliddin Kaxramonovich	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
Odilova Malika Abdushukur qizi	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH SANOATIGA JORIY ETISH 317
Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOBI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 321
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich



UDK: 657.1:378(575.1)

NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOBI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Tel.: (+998) 93-428-25-05

E-mail: xojiboyevmuhiddin77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarida (NOTM) boshqaruv hisobi tizimini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Maqolada ta'lim xizmatlari tannarxini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish mexanizmlari hamda xarajatlarni boshqarish tizimining zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, nodavlat oliy ta'lim muassasasi, ta'lim xizmatlari tannarxi, xarajatlarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, budjetlashtirish, daromad diversifikatsiyasi.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические основы и практические аспекты организации системы управленческого учёта в негосударственных высших образовательных учреждениях. Проанализированы особенности формирования себестоимости образовательных услуг, механизмы диверсификации источников доходов, а также современные подходы к системе управления затратами.

Ключевые слова: управленческий учёт, негосударственное высшее образовательное учреждение, себестоимость образовательных услуг, управление затратами, финансовая устойчивость, бюджетирование, диверсификация доходов.

Abstract. This article examines the theoretical foundations and practical aspects of organizing a management accounting system in private higher education institutions (PHEIs). The study analyzes the specific features of educational service cost formation, mechanisms for diversifying revenue sources, and modern approaches to cost management systems.

Keywords: management accounting, private higher education institution, cost of educational services, cost management, financial stability, budgeting, revenue diversification.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim sektori o'ziga xos murakkab iqtisodiy muhitda faoliyat yuritmoqda. Ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi, moliyaviy resurslar taqchilligi hamda global ta'lim standartlariga moslashish zarurati oliy ta'lim muassasalaridan samarali boshqaruv tizimini shakllantirishni va uni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

O'zbekistonda nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 doirasida Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil-28-yanvarda qabul qilingan PF-60-son Farmonda¹ ta'lim tizimini isloh qilish hamda xususiy sektorda oliy ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bois nodavlat oliy ta'lim muassasalarida samarali moliyaviy boshqaruv va boshqaruv hisobi tizimini joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshqaruv hisobi zamonaviy korxonalar va tashkilotlar faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni asoslash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatida boshqaruv hisobining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bunday muassasalar o'z faoliyatini asosan bozor tamoyillari asosida tashkil etadi hamda moliyaviy resurslarni mustaqil ravishda boshqarish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruv hisobining nazariy asoslari bo'yicha milliy va xorijiy adabiyotlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, C. Drury boshqaruv hisobini korxonada faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va qarorlar qabul qilish uchun zarur axborotlarni taqdim etuvchi tizim sifatida ta'riflaydi [21]. Charles T. Horngren, Srikant M. Datar va Madhav V. Rajan esa boshqaruv hisobini strategik boshqaruv bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqib, zamonaviy tashkilotlarda xarajatlarni boshqarish metodologiyasini batafsil tahlil qilganlar [22].

O'zbek iqtisodchi olimlari orasida boshqaruv hisobi sohasiga salmoqli hissa qo'shgan Pardayev A.X. va Pardayeva Z.A. tomonidan tayyorlangan darslikda boshqaruv hisobining barcha jihatlarini milliy sharoitga moslashtirilgan holda yoritilgan [5]. Pardayeva Z.A. keyingi tadqiqotlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirishning amaliy mexanizmlarini asoslab bergan [6].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi moliyaviy boshqaruv muammolari Ibragimov A.K., Xasanov B.A. va Rizayev N.K. tomonidan batafsil o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda universitetlar faoliyatida daromadlar va xarajatlarni tizimli boshqarish zarurati ta'kidlanib, milliy kontekstda boshqaruv hisobini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [7]. Maxsudov B.Y. universitetlar moliyaviy boshqaruvini o'rganib, budjetlashtirish tizimini strategik boshqaruvning muhim instrumenti sifatida asoslab bergan [8].

So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari boshqaruv hisobi va moliyaviy tahlil sohasida muhim tadqiqotlar olib bormoqda. Abdurahmonov Q.X. korxonada faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini o'rgangan [9]. Yusupova D.R. zamonaviy buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqqan [10]. Iminoxunov A.A. esa 2024-yilda oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish omillarini ilmiy asosda yoritib bergan [11].

Toshmatov X.A. korxonada strategik boshqaruv bo'yicha monografiyasida O'zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilgan [12]. Jalilov A. va G'ofurov B. 2023-yilgi tadqiqotlarida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligi masalalarini ko'rib chiqib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqqanlar [14]. Nazarov I.D. va Tursunova M.X. esa nodavlat oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni optimallashtirish mexanizmlarini o'rganib, samarali yechimlar taklif qilganlar [15].

Raqamlashtirish jarayoni va moliyaviy boshqaruv integratsiyasi bo'yicha Qodirov S.F. 2023-yilgi tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish yo'llarini asoslab bergan [16]. Xolmatov D.U. va Mirzayeva B.N. esa 2024-yilgi tadqiqotlarida ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligiga oid statistik ko'rsatkichlar asosida muhim xulosalar chiqqanlar [17].

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobining metodologik masalalarini o'rgangan Karimova F.A. ABC usuli asosida ta'lim xizmatlari tannaxini hisoblash metodologiyasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirib taklif etgan [18]. Usmonov B.A. va Hamidov J.T. universitetlarda budjetlashtirish hamda moliyaviy rejalashtirish tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab berganlar [19]. Askarov E.A. esa 2023-yilgi tadqiqotida O'zbekiston xususiy oliy ta'lim sektorining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish tendensiyalarini miqdoriy metodlar asosida tahlil qilgan [20].

Xorijiy olimlar orasida Cropper P. va C. Drury Buyuk Britaniya universitetlari misolida moliyaviy boshqaruv tizimini o'rganib, budjetlashtirish hamda moliyaviy rejalashtirish orqali resurslar taqsimotini optimallashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib berganlar [24]. Ozdil E. Turkiya universitetlari faoliyatida boshqaruv hisobini strategik rejalashtirish jarayonida qo'llash tajribasini tahlil qilgan [25]. Nkonki V. va Pillay A. esa "Balanced Scorecard" tizimini Janubiy Afrika universitetlarida joriy etish samaradorligini empirik jihatdan asoslab berganlar [26]. Robert S. Kaplan tomonidan ishlab chiqilgan ABC tizimi universitetlarda ta'lim xizmatlari tannaxini yanada aniq hisoblash imkonini beradi hamda O'zbekiston nodavlat oliy ta'lim muassasalari uchun istiqbolli yondashuv hisoblanadi [23].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosalash, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash hamda empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks ravishda o'rganildi.

Asosiy axborot manbalari sifatida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy hisobotlari, xorijiy universitetlar tajribasi hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistondagi nodavlat oliy ta'lim muassasalari tanlandi.

Ma'lumotlar 2020–2025-yillar davomida jamlandi hamda qayta ishlandi. Tadqiqot jarayonida boshqaruv hisobi tizimining amaldagi holati, ta'lim xizmatlari tannaxini shakllantirish jarayoni, shuningdek, daromadlar va xarajatlar



tarkibi tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida sohada boshqaruv hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

4.1. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari davlat oliy ta'lim muassasalaridan farqli ravishda moliyaviy mustaqillikka ega bo'lib, o'z faoliyatini asosan bozor mexanizmlari asosida tashkil etadi. Shu sababli ushbu muassasalarda boshqaruv hisobi tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimining asosiy o'ziga xos jihatlari aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimining o'ziga xos jihatlari²

No	Xususiyat	Mazmuni	Ahamiyati
1	Moliyaviy mustaqillik	Faoliyat asosan kontrakt to'lovlari orqali moliyalashtiriladi	Yuqori
2	Ta'lim xizmatlari tannarxini aniqlash	Talaba tayyorlash bilan bog'liq barcha xarajatlarni hisoblash	Juda yuqori
3	Daromadlarni diversifikatsiya qilish	Grantlar, ilmiy loyihalar, konsalting va qo'shimcha xizmatlar	Yuqori
4	Xarajatlarni boshqarish	Ta'lim jarayonidagi xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish	Juda yuqori
5	Strategik rivojlanish	Uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini moliyaviy ta'minlash	O'rta
6	Raqobatbardoshlik	Bozorda barqaror pozitsiyani saqlash uchun tannarxni optimallashtirish	Yuqori

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimi, avvalo, ta'lim xizmatlari tannarxini aniqlash va xarajatlarni samarali boshqarish funksiyalariga tayanadi. Mazkur holat muassasaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega.

4.2. Ta'lim xizmatlari tannarxini shakllantirish modeli

Tadqiqot davomida nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari tannarxini shakllantirish jarayoni chuqur tahlil qilindi. Aniqlanishicha, ta'lim xizmatlari tannarxi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlar yig'indisi asosida shakllanib, keyinchalik talabalar soniga taqsimlanadi. Ushbu jarayon quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$T_x = \frac{X_{tt} + X_{bv}}{T_s}$$

bu yerda:

T_x — bir talabaga to'g'ri keladigan ta'lim xizmatining tannarxi;

X_{tt} — to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar (professor-o'qituvchilar ish haqi, o'quv materiallari);

X_{bv} — bilvosita xarajatlar (ma'muriy xarajatlar, infratuzilma, IT xarajatlari);

T_s — talabalar soni.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, aksariyat nodavlat oliy ta'lim muassasalarida bilvosita xarajatlar umumiy xarajatlar tarkibida 35–45 % ni tashkil etadi. Bu esa tannarxni aniqlash jarayonida xarajatlarni oqilona taqsimlash metodologiyasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarning tarkibiy tuzilishi³

Xarajat turi	Tarkibi	Ulushi (%)	Boshqaruv imkoniyati
To'g'ridan-to'g'ri	Professor-o'qituvchilar ish haqi	38–42 %	O'rta
To'g'ridan-to'g'ri	O'quv-uslubiy materiallar	8–12 %	Yuqori

2 Muallif tomonidan tuzilgan.

3 Manba: 12 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasining 2020–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar.

To'g'ridan-to'g'ri	Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar	5–8 %	O'rta
Bilvosita	Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari	12–15 %	Yuqori
Bilvosita	Kommunal to'lovlar va infratuzilma	8–10 %	Past
Bilvosita	IT infratuzilma va raqamlashtirish	5–8 %	Yuqori
Bilvosita	Marketing va PR xarajatlari	3–5 %	Yuqori
Bilvosita	Amortizatsiya xarajatlari	5–7 %	Past

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida eng yuqori ulush professor-o'qituvchilar ish haqi hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, ma'muriy boshqaruv xarajatlari, IT infratuzilmasi va o'quv-uslubiy materiallar xarajatlari ham sezilarli salmoqqa ega. Mazkur holat boshqaruv hisobi tizimida xarajatlarni maqbullashtirish va resurslardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Daromad manbalarini diversifikatsiya qilish tizimi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston nodavlat oliy ta'lim muassasalarida daromadlarning 82–88 % qismi ta'lim xizmatlari uchun to'lovlar, ya'ni kontrakt tushumlari hisobidan shakllanadi. Bu holat muassasalarni sezilarli moliyaviy xavf ostida qoldiradi. Chunki talabalar sonining kamayishi yoki to'lovlarni undirishda muammolar yuzaga kelishi umumiy moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xorijiy universitetlar tajribasida esa daromad manbalari nisbatan diversifikatsiyalashgan. Masalan, Buyuk Britaniya universitetlarida ilmiy tadqiqot grantlari, konsalting xizmatlari va qo'shimcha ta'lim dasturlari umumiy daromadning 40–50 % ini tashkil etadi. O'zbekiston nodavlat oliy ta'lim muassasalarida esa ushbu ko'rsatkich 12–18 % atrofida ekani aniqlandi.

Shu sababli nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun daromad manbalarini diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish hamda boshqaruv hisobi tizimida ushbu manbalarni alohida hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday strategiya quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi lozim: qisqa muddatli kasbiy tayyorlov kurslari, korporativ ta'lim dasturlari, xalqaro tadqiqot loyihalarida ishtirok etish, konsalting xizmatlari hamda onlayn ta'lim platformalarini rivojlantirish.

Axborot texnologiyalari va raqamli boshqaruv hisobi

Zamonaviy sharoitda nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. ERP tizimlari, bulutli hisoblash platformalari va tahliliy dashboardlar yordamida real vaqt rejimida moliyaviy ma'lumotlarni kuzatish, xarajatlarni tahlil qilish hamda prognozlash imkoniyati kengaymoqda.

Mazkur raqamli yechimlar boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asosanib, O'zbekiston nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar⁴

Muammo	Tavsiya	Kutilayotgan natija
Ta'lim xizmatlari tannarxining noaniq hisoblanishi	ABC (Activity-Based Costing) metodologiyasini joriy etish	Tannarx aniqligini 25–30 % ga oshirish
Daromad manbalarining bir tomonlama tarkibi	Daromadlarni diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish	Moliyaviy xavfni 35–40 % ga kamaytirish
Xarajatlar monitoringining zaif tashkil etilishi	Real vaqt rejimida monitoring uchun ERP tizimini joriy etish	Xarajatlarning ortib ketishini 20 % ga kamaytirish
Strategik rejalashtirish bilan zaif bog'liqlik	Balanced Scorecard tizimini qo'llash	Strategik maqsadlarga erishish darajasini 30 % ga oshirish
Budjetlashtirish sifatining pastligi	Zero-Based Budgeting yondashuvini qo'llash	Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish

4 Manba: muallif tomonidan tuzilgan.



Xulosa qilib aytganda, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimini samarali tashkil etish ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda strategik rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy nodavlat oliy ta'lim muassasalari boshqaruv hisobini an'anaviy moliyaviy hisobdan ajratgan holda, uni strategik boshqaruvning ajralmas elementi sifatida ko'rib chiqishlari zarur.

Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish, xususan, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv hisobi tizimini joriy etish tajribasini o'rganish hamda uning moliyaviy natijalarga ta'sirini miqdoriy baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni O'RB-637. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RB-637-son Qonuni (yangi tahriri). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil-23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022-yil-28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil-8-oktabr. <https://lex.uz/docs/-4545884>
4. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida"gi 494-son Qarori. – Toshkent, 2023-yil-13-sentabr. <https://lex.uz/ru/docs/-5553498>
5. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A.. *Boshqaruv hisobi: darslik*. – Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti, 2024. – 520 b.
6. Pardayeva Z.A.. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish. Bank-Moliya Akademiyasi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 87–92.
7. Ibragimov A.K., Xasanov B.A., Rizayev N.K.. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv tizimi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 2022, 10(3), b. 78–94.
8. Maxsudov B.Y.. Oliy ta'lim muassasalarida budjetlashtirish tizimini strategik boshqaruvga integratsiya qilish. *Moliya va bank ishi*, 2023, (1), b. 45–61.
9. Abdurahmonov Q.X.. *Korxonada faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarning ahamiyati*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022. – 240 b.
10. Yusupova D.R.. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish: zamonaviy yondashuvlar. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 2023, 11(2), b. 55–68.
11. Iminoxunov A.A.. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv tizimini takomillashtirishning asosiy omillari. *CAJEM-Science jurnali*, 2024, 4(3), b. 112–124. (Qabul qilindi: 2024-yil-16-oktabr; nashr etildi: 2024-yil-20-dekabr).
12. Toshmatov X.A.. *Korxonada strategik boshqaruvni: monografiya*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021. – 310 b.
13. Rasulov B.T.. *Moliyaviy tahlil nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 288 b.
14. Jalilov A., G'ofurov B.. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligi: muammolar va yechimlar. *Innovations in Science and Technologies*, 2023, 9(4), b. 208–219.
15. Nazarov I.D., Tursunova M.X.. Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni optimallashtirish mexanizmlari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2022, (3), b. 34–47.
16. Qodirov S.F.. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 2023, (4), b. 61–75.
17. Xolmatov D.U., Mirzayeva N.B.. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligining rivojlanish holati tahlili. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2024, (1), b. 89–103.
18. Karimova F.A.. Universitetlarda ABC (Activity-Based Costing) usuli asosida ta'lim xizmatlari tannarxini hisoblash metodologiyasi. *Iqtisodiy tahlil: nazariya va amaliyot*, 2023, 22(5), b. 927–940.
19. Usmonov B.A., Hamidov J.T.. Oliy ta'lim muassasalarida budjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish tizimi. *Bank-Moliya Akademiyasi ilmiy axborotnomasi*, 2022, (2), b. 43–56.
20. Askarov E.A.. O'zbekistonda xususiy oliy ta'lim sektori: moliyaviy barqarorlik va rivojlanish tendensiyalari. *Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 2023, 5(1), b. 28–41.
21. Colin Drury. *Management and Cost Accounting*. 11th ed. London: Cengage Learning, 2021. – 960 p.
22. Charles T. Horngren, Srikant M. Datar, Madhav V. Rajan. *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. 16th ed. New Jersey: Pearson Education, 2021. – 928 p.
23. Robert S. Kaplan, Steven R. Anderson. *Time-Driven Activity-Based Costing: A Simpler and More Powerful Path to Higher Profits*. Boston: Harvard Business School Press, 2022. – 288 p.
24. Cropper P., Colin Drury. Management accounting practices in UK higher education institutions. *Financial Accountability & Management*, 2020, 36(3), pp. 245–264.
25. Ozdil E.. Strategic management accounting in Turkish universities: Budgeting and performance evaluation. *Journal of Higher Education Policy and Management*, 2023, 45(2), pp. 112–129.
26. Nkonki V., Pillay A.. Implementing Balanced Scorecard in South African universities: Challenges and opportunities. *South African Journal of Higher Education*, 2022, 36(1), pp. 178–196.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100